

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

KAYPNAZAROV JANDOS JUMAMBETOVICH

**SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNING AGROKIMYOVIY XOSSALARI
VA KUZGI BUG‘DOY HOSILDORLIGIGA CHIQINDI, QOLDIQARNI
TA’SIRI (NAVOIY VILOYATI SUG‘ORILADIGAN SUR TUSLI QONG‘IR-
O‘TLOQI VA O‘TLOQI TUPROQLAR MISOLIDA)**

06.01.04 – «Agrokimyo»

**QISHLOQ XO‘JALIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on agricultural
sciences**

Каупназаров Жандос Жумамбетович

Sug‘oriladigan tuproqlarning agrokimyoviy xossalari va kuzgi bug‘doy
hosildorligiga chiqindi, qoldiqlarni ta’siri (Navoiy viloyati sug‘oriladigan
sur tusli qo‘ng‘ir-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlar misolida)..... 3

Кайпназаров Жандос Жумамбетович

Влияние отходов, остатков на агрохимические свойства орошаемых
почв и урожайность озимой пшеницы (На примере орошаемых
луговых и серо-бурых луговых почв Навоиской области)..... 21

Каупназаров Жандос Жумамбетович

The influence of waste and residues on the agrochemical properties of
irrigated soils and the yield of winter wheat.(On the example of irrigated
meadow-brown and meadow soils of the Novoi region)..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

KAYPNAZAROV JANDOS JUMAMBETOVICH

**SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNING AGROKIMYOVIY XOSSALARI
VA KUZGI BUG‘DOY HOSILDORLIGIGA CHIQINDI, QOLDIQLARNI
TA’SIRI (NAVOIY VILOYATI SUG‘ORILADIGAN SUR TUSLI QO‘NG‘IR-
O‘TLOQI VA O‘TLOQI TUPROQLAR MISOLIDA)**

06.01.04 – «Agrokimyo»

**QISHLOQ XO‘JALIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.4.PhD/Qx1248 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universiteti, Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Atoyev Baxtiyor Qo‘ldoshevich qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	Mirzayev Lutfullo Aribjanovich qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim
	Muhammadiev Samad Qilichevich qishloq xo‘jaligi fanlari falsafa doktori, (PhD)
Yetakchi tashkilot:	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Agrokimyoviy va o‘simliklarni himoya qilish kafedrasini.

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/07.06.2024. Q.x.13.03-raqamli Ilmiy kengashning 18.01.2025-yil soat 12-00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel:(+99871)-260-48-00; faks: (+99871)-260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz); Toshkent davlat agrar universiteti Ma’muriy binosi, 1-qavat, kichik zali)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 552080 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel:(+99871)-260-48-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « ___ » « _____ » kuni tarqatildi.
(2024- yil « ___ » _____ dagi № 10- raqamli bayonnomasi).

N.B.Raupova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, biologiya fanlari doktori, professor

G.S.Sodiqova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, biologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.E.Saidova,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda organik mahsulot yetishtirishda tuproq sog'lomligi muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo bo'yicha oxirgi yillarda 221,96 million gektar maydonda bug'doy yetishtirilib, zamonaviy intensiv texnologiyalarni qo'llash natijasida yalpi hosil 776 million tonnani tashkil etmoqda¹. Yetishtirilgan don hosilining asosan 70,4 foizi Xitoy, Hindiston, Rossiya, AQSH, Kanada, Fransiya, Pokiston, Ukraina, Germaniya va Turkiya singari rivojlangan davlatlar ulushiga to'g'ri kelmoqda². Dunyo bo'yicha 5-40 foiz yer maydonlarida ozuqa elementlar borgan sari kamayib borayotganligini hisobga olib, chiqindi va qoldiqlardan o'g'it sifatida foydalanishda AQSH, Kanada, Germaniya, Xitoy, Rossiya va boshqa davlatlarida noan'anaviy o'g'it tayyorlash va undan o'g'it sifatida foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Dunyoda tuproq unumdorligini yaxshilash, g'alla ekinlari hosildorligini oshirish, don sifatini yaxshilashda organik va mineral o'g'itlarni turli me'yor, muddat, nisbat va usullarda qo'llash kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada o'simlikning biologik xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoitlarini, tuproqning organik va oziqa moddalar bilan ta'minlanganligini, o'g'it tarkibi va xususiyatlarini inobatga olgan holda tuproq oziqa muhitini maqbullashtirish va o'simlikning oziqlanishini boshqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida etibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mavjud sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishda tuproq unumdorligini oshirish, turli shakldagi organik o'g'itlarni mineral o'g'itlar bilan birgalikda qo'llashning maqbul muddatlari va usullari bo'yicha kuzgi bug'doyni oziqlantirishda keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 30-maqsadida "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga etkazish"³ vazifasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentyabrdagi 806-son "Boshoqli don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta'minlashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarori shuningdek, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Shuning uchun ham turli tuproq-iqlim sharoitlarida tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, kuzgi bug'doydan mo'l va sifatli hosil olish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-noyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida"⁴ gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ <https://www.igc.int/en/default.aspx>

² https://ru.wikipedia.org/wiki/списокстран_производящихпшеницу

³ 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

⁴ 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jaxon g‘allachiligida turli nisbatlarda mineral og‘itlar bilan birga tayyorlangan noan‘anaviy o‘g‘itlar, turli shakldagi organik o‘g‘itlarni kuzgi bug‘doyga qo‘llash borasida xorijiy tadqiqotchilardan X.Dai (AQSH), E.Liu, M.H. Vo (Xitoy), E.W.Arthur (Avstraliya), B.S.Brar, S.Jiwan (Hindiston), M.A.Malik, A.Ali (Pokiston), J.Arbakauskas, R.Mazeika (Litva), Lukas Hlisnikovsky, Milan Vach, Zdenek Abrham, Ladislav Mensik, Eva Kunzova (Chexiya) Н.Демелаш, И.С.Белюченко, С.В.Лукин, В.В.Гукалов, Г.А.Лавронов, С.Х.Дзанагов, Т.К.Лазаров, Д.Н.Прянишников (Rossiya) tadqiqotlar olib borgan.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari, jumladan g‘alla ekinini organik moddalar bilan oziqlantirish, turli og‘irlik nisbatlarda boshqa komponentlar bilan birgalikda kompostlashni, unumdorligi va ekinlar hosildorligini oshirishdagi samarasi bo‘yicha respublikamizda F.A.Skryabin, I.P.Mamchenkov, G.A.Dyujev, J.S.Sattarov, Sh.Ch.Mamiyev, B.S.Musayev, K.M.Roziqov, I.E.Eshonov, B.I. Niyazaliyev, I.N.Niyazaliyev, F.Xoshimov, A.Ergashev, B.X.Tillabyekov, F.X.Yuldashev, Sh.M. Bobomurodov, M.M.Tashqo‘ziyev, N.M.Ibragimov, T.S.Zokirov, Sh.Xoliqulov, B.Tillabyekov, L.A.Mirzayev, I.Egamov, S.M. Boltayev, B.A.Sulaymonov, N.Urazmatov, G.O‘rinboyev, B.Q.Atoyev va boshqalar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Lekin bugungi kunda organik o‘g‘itlar, o‘simlik qoldiqlari, qoramol, qo‘y-echki va tovuq go‘nglari, loyqa (il) aralashmalaridan turli nisbatlarda kompostlar tayyorlash hamda ularni kuzgi bug‘doyda qo‘llashning samaradorligi, kuzgi bug‘doy yetishtirilayotgan hudud uchun maqbul o‘g‘it me‘yorlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining AM-PZ-201906218 “Ekin dalalarining o‘zida chiqindi va qoldiqlar hisobidan organik, makro va mikro elementlarni ko‘paytirish agrotexnologiyasini yaratish” mavzusidagi (2020-2023 yy.) amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Chiqindi, qoldiqlar va mineral og‘itlarning sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir-o‘tloqi va sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarning agrokimyoviy xossalriga, kuzgi bug‘doy o‘simligining hosildorligi va mahsulot sifatiga ta‘sirini aniqlash hamda kuzgi bug‘doy uchun maqbul oziqlantirish me‘yori, muddatlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir-o‘tloqi va sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarning agrokimyoviy xossalari aniqlash;

ekin dalalarining o‘zida chiqindi va qoldiqlar hisobidan tayyorlangan noan‘anaviy o‘g‘itni mineral o‘g‘itlar fonida kuzgi bug‘doyning kimyoviy tarkibiga ta‘sirini aniqlash;

chiqindi, qoldiqlar va mineral o‘g‘itlarni qo‘llash me‘yorini kuzgi bug‘doyning

o'sishi, rivojlanishi, oziq moddalar to'plashi, don hosili va sifatiga ta'sirini aniqlash;
o'g'itlar me'yorini va muddatlarini kuzgi bug'doyning biomassa to'plashiga tasirini aniqlash;

o'g'itlar samaradorligini kuzgi bug'doy hosili bilan taqqoslash;

sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda ozuqa elementlar miqdorini ko'paytirishda kuzgi bug'doy uchun maqbul me'yor va muddatlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Navoiy viloyati Qiziltepa tumanida tarqalgan sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar hamda kuzgi bug'doyning «Vassa» navi, chiqindi, qoldiqlar va mineral o'g'itlar olingan.

Tadqiqotning predmeti chiqindi, qoldiqlar va mineral o'g'itlar ta'sirida sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda, kuzgi bug'doyningning o'sishi, rivojlanishi, quruq modda, ildiz, ang'iz, yashil va don massasi hamda kimyoviy va sifat tarkibi, o'g'itlardagi oziq moddalarni o'zlashtirilishini o'zgarishi hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dala tadqiqotlari, tuproq va o'simlik namunalarini olish, agrokimyoviy tahlillar, fenologik kuzatuvlar umumiy qabul qilingan uslubiy qo'llanmalar asosida «Dala tajribalarini o'tkazish usullari», «Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии», «Методика полевого опыта», tuproq va o'simlik namunalarini kimyoviy tahlil qilish «Don va non mahsulotlarining sifatini baholash hamda nazorat qilish» va TU O'z-8- 115-97 va GOST 13586-1-68 qo'llanmalari asosida bajarilgan. Tajribalardan olingan ma'lumotlarning dispersion-statistik tahlili "Microsoft excel" dasturi yordamida B.A.Dospexov uslubiy qo'llanmasidan foydalanilgan hamda ekinlarni parvarishlashda iqtisodiy samaradorlik N.A.Baranov usuli asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doy uchun mineral o'g'itlar 30 foizi tejalgan hamda chiqindi, qoldiqlarni 10 t/ga va $N_{154}P_{112}K_{35}$ kg/ga qo'llash orqali maqbul o'g'it qo'llash tizimi ishlab chiqilgan;

chiqindi, qoldiqlar 10 t/ga va $N_{154}P_{112}K_{35}$ kg/ga maqbul o'g'it me'yorini qo'llashda, sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlarda fermer hosildorligiga nisbatan qo'shimcha don hosil 6,2 s/ga va oqsil miqdori 1,05 % ga va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda qo'shimcha don hosili 7,1 s/ga va oqsil 2,5 % miqdorda oshganligi ilmiy jihatdan isbotlangan;

sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlar va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar sharoiti uchun chiqindi, qoldiqlar, mineral o'g'itlardan foydalanib, tuproqning 0-30 sm qatlamini noan'anaviy o'g'itga boyitish agrotexnologiyasi yaratilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlar va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda ham chiqindi, qoldiqlar 10 t/ga va $N_{154}P_{112}K_{35}$ kg/ga o'g'it me'yorlari qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

chiqindi, qoldiqlar 10 t/ga va $N_{154}P_{112}K_{35}$ kg/ga o'g'it me'yorlarini sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlarda ham sug'oriladigan o'tloqi

tuproqlarida qo'llash me'yorlari va muddatlari ishlab chiqilgan. Buning natijasida kuzgi bug'doyning «Vassa» navidan sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlar sharoitida 64,7 s/ga olingan bo'lsa, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda 67,3 s/ga don hosili olingan;

sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlarda hamda sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarida 10 t/ga chiqindi, qoldiqlar va $N_{154}P_{112}K_{35}$ kg/ga o'g'it me'yorlari qo'llanilganda "Vassa" navida donning tashqi (donning shakli, rangi, yaltiroqligi, shaffofligi) belgilari va unidan yopilgan nonning sifati (organoleptik, fizik-kimyoviy) ko'rsatkichlari baholash balli 5 balli, a'lo bahoga yaxshilangan;

Shuningdek, ishlab chiqilgan maqbul o'g'it qo'llash tizimi asosida kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli hosil olinganligi, o'g'itlarni maqbul me'yorda qo'llanilganligi, ulardan samarali foydalanishda tuproqlarning agrokimyoviy holatini yaxshilashi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dala tadqiqotlarda maxsus komissiyasi tomonidan aprobatiya ko'rigidan o'tkazilganligi, tadqiqotlarda olingan ilmiy va amaliy natijalarning bir-biri bilan o'zaro mosligi, natijalarining dala va laboratoriya usullaridan foydalanilgan holda samaradorligini, matematik-statistik tahlillardan o'tkazilganligi, ilmiy-amaliy natijalar ishlab chiqarishga joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy konferensiyalarda muhokama etilb borilganligi shuningdek, O'zbekiston respublikasi Oliy t'alim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi, qoldiq, chiqindi va mineral o'g'itlarni kuzgi bug'doyga qo'llash bo'yicha tadqiqotlar umumiy qabul qilingan uslublar asosida bajarilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlar va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda 10 t/ga chiqindi, qoldiqlar va $N_{154}P_{112}K_{35}$ kg/ga o'g'it me'yorlarini tuproqning agrokimyoviy xossalari, navning potensial mahsuldorligidan to'liq foydalanilganligi, don (un va non) sifat ko'rsatkichlarining o'g'it me'yorlari va muddatlariga bog'liqligi, don nisbatlari hamda ularning kimyoviy tarkibini shakllanishi, don va biomassa sifatini yuzaga kelishi, oziq moddalarni olib chiqilishi, qaytarilishi va balansi o'zgarishi, o'g'itlardagi oziq moddalarni bug'doy o'simligi tomonidan o'zlashtirilish koeffitsiyenti ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'rganilgan tuproqlarda yetishtirilgan kuzgi bug'doyning ekish me'yori, muddati, yuqori don hosilini shakllantirgan o'g'it (chiqindi, qoldiqlar 10 t/ga, $N_{154}P_{112}K_{35}$ kg/ga o'g'it) me'yorlari, qo'llash muddatlari, o'g'itning iqtisodiy samaradorligi aniqlanganligi, ishlab chiqilgan maqbul o'g'itni qo'llash tizimi orqali hosildorlik oshganligi va mahsulot sifati yaxshilanganligi, oziq moddalar balansi ijobiy tomonga o'zgarganligi, mineral o'g'itlardagi oziq moddalarning o'zlashtirilish koeffitsiyenti ortganligi hamda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar sharoitida chiqindi va qoldiqlar qo'llashning tuproq unumdorligi, kuzgi bug'doy hosili va don sifatini oshirishga ta'sirini aniqlash borasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida;

sugʻoriladigan sur tusli qoʻngʻir-oʻtloqi tuproqlar va sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlari sharoitida maqbul oʻgʻit meʼyorlari va muddatlarini qoʻllash yuzasidan “Sugʻoriladigan tuproqlarda qoʻllanilgan chiqindi va qoldiqlarni kuzgi bugʻdoyga taʼsiri” boʻyicha tavsiyanoma ishlab chiqilib, fermer va klaster xoʻjaliklariga amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xoʻjaligi vazirligining 2023-yil 8-sentyabr 04/21-21-08/400-son maʼlumotnomasi). Natijada, gʻallachilikka ixtisoslashgan fermer xoʻjaliklari tuproqlarining agrokimyoviy holati asosida chiqindi va qoldiqlarni qoʻllash va kuzgi bugʻdoy hosildorligini oshirish boʻyicha tadbirlarni belgilashda qoʻllanma sifatida xizmat qilgan;

chiqindi va qoldiqlar 10 t/ga sof holda va $N_{154}P_{112}K_{35}$ kg/ga meʼyorlari, kuzgi bugʻdoy doni (unidan yopilgan non) ning sifatiga ijobiy taʼsir koʻrsatgan (Qishloq xoʻjaligi vazirligining 2023-yil 8-sentyabr 04/21-21-08/400-son maʼlumotnomasi). Natijada, maqbul meʼyorlarda donning kimyoviy tarkibi, ayniqsa oqsil miqdori va donning shakli, rangi, yaltiroqligi hamda unidan yopilgan nonning sifati (organoleptik, fizik-kimyoviy) koʻrsatkichlari yaxshilangan. Kuzgi bugʻdoy don tarkibidagi oqsil miqdori sugʻoriladigan sur tusli qoʻngʻir-oʻtloqi tuproqlarda 1,05 foizga ga va sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlarda 2,5 foizga oshgan;

kuzgi bugʻdoydan moʻl va sifatli hosil oshirishga asoslangan, tavsiya etilgan oʻgʻit tizimi, Navoiy viloyati Qiziltepa tumani Toshrobot massividagi fermer xoʻjaliklarining sugʻoriladigan sur tusli qoʻngʻir-oʻtloqi tuproqlarida 108,2 gektar maydonga, sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlarda 139,5 gektar maydonga joriy qilingan (Qishloq xoʻjaligi vazirligining 2023-yil 8-sentyabr 04/21-21-08/400-son maʼlumotnomasi). Natijada, fermer xoʻjaliklarida, kuzgi bugʻdoydan sugʻoriladigan sur tusli qoʻngʻir-oʻtloqi tuproqlarida qoʻshimcha 6,2 s/ga, sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlarda qoʻshimcha 7,1 s/ga don hosili olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 5 ta, shu jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarning eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 11 ta ilmiy ishlar chop ettirilgan, shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari boʻyicha asosiy tadqiqot natijalarini eʼlon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shu jumladan 4 tasi respublika, 1ta xorijiy jurnallarda shuningdek, 1 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida oʻtkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmetlari tavsiflangan, Oʻzbekiston Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan,

tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertasiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **«O'g'itlar qo'llash asosida kuzgi bug'doyning oziqlantirishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy manbalar sharhi»** deb nomlangan birinchi bobida chet el, respublika olimlarining ilmiy tadqiqot natijalari tahlili keltirilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, bob ikkiga: «Chiqindilar, qoldiqlar va mineral o'g'itlarni tuproqning agrokimyoviy va agrofizik xossalriga ta'siri» va «Kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli hosil shakllantirishda o'g'itlarning ahamiyati» nomli bo'limlarga ajratilgan. Birinchi bo'limda tuproq-iqlim sharoitlari, tuproq xossalari, organik, mineral o'g'itlar, noan'anviy o'g'it tayyorlash agrotexnologiyasi, tuproq va o'simlikdagi oziqa elementlar miqdori, unumdorligin oshirish kabi muhim jihatlar horijiy va mahaliy adabiyotlarda keng tahlil qilinganligi yoritilgan.

Ikkinchi bo'limda, kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli hosil shakllantirishda, respublika va halqaro ilmiy-tadqiqot tashkilotlarning tajribalari, navning biologik xususiyatlariga ko'proq bog'liqligi, ayniqsa navlarni to'g'ri rayonlashtirish, unib-chiqishi, o'sishi-rivojlanishi, sug'orish, agrotexnik tadbirlar, maqbul o'g'it me'yorini qo'llash muddatlari, qo'llaniladigan o'g'itlarning o'simlik tarkibidagi oziq elementlarga bo'lgan ta'siri, don hosili, donning sifati, o'g'itlarni samaradorligi bo'yicha respublika va chet el olimlarning ilmiy ishlaridan xulosalar qilingan.

Shu bilan bir qatorda, ilmiy manbalardan xulosalar qilib, har bir tuproq-iqlim sharoitlariga bog'liq holda navning biologik xususiyatlarini hisobga olish, har bir nav uchun maqbul oziqlantirish tizimini ishlab chiqish, chiqindi va qoldiqlardan o'g'it sifatida samarali foydalanishni tashkil etish, uning turi, tarkibini tahlil qilish, me'yor va nisbatini ishlab chiqish, tuproq va o'simlikka o'g'itlarning ta'sirini aniqlash, o'g'itning samaradorligini oshirish, organik o'g'itlar tayyorlab va qo'llab haydalma qatlamni noan'anviy o'g'itga aylantirish agrotexnologiyasini takomillashtirish bo'yicha dala tajribalar sharoitida chuqur o'rganilmaganligi sababli ilmiy izlanishlarni olib borish muhimligi keltirilgan.

Dissertasiyaning **«Tadqiqotlar hududining tabiiy-geografik sharoitlari, tuproqlari, noan'anviy o'g'it tayyorlash texnologiyasi»** deb nomlangan ikkinchi bobi besh bo'limdan iborat bo'lib, «Geografik o'rni, geologik tuzilishi va geomorfologik joylashishi» deb nomlangan 2.1-bo'limida, ikkita tuproqlarda dala tadqiqotlari o'tkazilgan 2 xil tipdagi (sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va o'tloqi tuproqlar), joylashgan xududning tabiiy-geografik o'rni, geologik tuzilishiga va geomorfologik joylashishi, iqlimi va tuproqlari, dala tajribasidan olingan tuproq kesmalari, tuproqlarning morfologik ta'rifi, suvli-so'rim tahlil natijalari, mexanik tarkibi, agrokimyoviy va suv-fizik xossalari o'rganilgan. Tadqiqotlarda o'rganilgan sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar, Malikcho'l hududidagi tuproqlari bo'lib, Navoiy viloyati xududida joylashgan, u Zarafshon vodiysining g'arbiy qismi past tekisliklarini hamda Qizilqum cho'lining sharqiy qismini egallagan. Navoiy viloyatining xududi, tabiiy sharoitiga ko'ra 3 qismga bo'linadi: shimoliy g'arbiy qismini Qizilqum cho'li, sharqiy qismini Nurota tog' tizmasi va botiqlari, shuningdek Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Malikcho'l cho'li bilan farqlangan. Tadqiqotlar sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-

o'tloqi va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar uchinchi geomorfologik joylashish sharoitlarida olib borilgan.

«Iqlimi va tuproqlari» deb nomlangan 2.2-bo'limida, tadqiqotlar olib borilgan joyning iqlimi sharoitlari haqida so'z borgan, iqlimi cho'l mintaqasi iqlimidan subtropik iqlim mintaqasiga o'tish chegarasida joylashgan. Azot, fosfor, kaliy oziqa elementlar bilan kam, o'rtachadan past ta'minlangan tuproqlarga kirgan. XX-asrning 60-70 yillarida sur tusli qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan ko'p maydonlarning o'zlashtirilishi va turli sabablar tufayli sizot suvlarining er yuzasiga yaqin joylanishi, sho'rlanishiga olib kelgan. Dastlabki avtomorf, keyingi paytda gidromorf, yarim gidromorf tuproqlar hosil bo'lgan.

Sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlar mexanik tarkibi bo'yicha engil qumoqli. Tuproqlar kam gumusli tuproqlar qatoriga kirgan. Tuproqda gumus miqdori 0,95-1,09 % gacha, azot miqdori 0,070-0,093 % gacha, fosfor miqdori 0,122-0,144 % gacha va kaliy miqdori 1,200-1,324 % gacha tebranishi aniqlangan. Azot bilan o'rtacha, fosfor va kaliy bilan o'rtachadan past ta'minlangan. Sizot suvlar sathini 1,6-2,0 metr atrofida ko'tarilgan. Quruq qoldiq miqdori 3,700 g/l. Tuproq va yer osti suvi xlorid-sulfatli tuzlar bilan o'rtacha darajada sho'rlangan.

Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar mexanik tarkibi bo'yicha o'rta qumoqli. Tuproqda gumus miqdori 1,11-1,15 % gacha, azot miqdori 0,074-0,098 % gacha, fosfor miqdori 0,172-0,152 % gacha, kaliy miqdori 1,470-1,521 % gacha tebranishi aniqlangan. Azot, fosfor va kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. Sizot suvlar sathini 2,0-2,5 metr atrofida ko'tarilgan. Quruq qoldiq miqdori 1,900 g/l. Tuproq va yer osti suvi xlorid-sulfatli tuzlar bilan kuchsiz darajada sho'rlangan.

«Dala tadqiqotlari o'tkazish joyi, tajriba qo'yish sxemasi va o'g'it qo'llash tizimi» deb nomlangan 2.3-bo'limida, tadqiqotlar o'tkazish joyi, Navoiy viloyati Qiziltepa tumani Toshrobot massivi bo'lib, 2020-2023 yillari sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi ("Oqrabot yulduzi" fermer xo'jalida) va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda ("Shaxzod kelajagi" fermer xo'jaligida) kuzgi bug'doyning «Vassa» navi bilan, tajribasi 5 variant, 3 qaytariqda dala tajribasi qo'yilgan.

Tajribada o'rganiluvchi har bir variantning qatori oralig'i 0,6 metr, bir qaytariq eni (40 ta qator) 24 metr, uzunligi 11,875 metr, bir qaytariq 285,0 m², 3 qaytariq 855,0 m². 5 variant bilan hisoblash maydonchasi 4275 m².

Umumiy qatorlar uzunligi 218 ta (130,8 metr), eni 42,225 (variantlar orasi 39,225) metr bo'lib, umumiy maydoni 5523,03 m² tashkil etgan.

Dala tajriba maydonlarida, chiqindi (qoramol va tovuq go'nglari va chuchuk suv loyqasi), qoldiqlar (bug'doy somoni), mineral o'g'itlardan: ammiakli selitra (N-34,4 %), ammofos (N-11 %, P-46 %) va kaliy xlor (K-60 %) (1-jadval).

«Tuproq, o'simlik namunalarini olish, tahlilga tayyorlash va aniqlash usullari» deb nomlangan 2.4-bo'limida, dala tajribasini o'tkazish, tuproq, o'simlik namunalarini olish, tahlil qilish, kuzgi bug'doyda fenologik kuzatishlar o'tkazish, olingan ma'lumotlarga variasion statistik uslubda matematik ishlov berish Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma bo'yicha tahlil qilingan (2007).

Sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va o'tloqi tuproqlari sharoitida chiqindi (qoramol, tovuq go'nglari, chuchuk suv loyqasi) qoldiqlar (bug'doy

somoni), va mineral o'g'it me'yorlaridan iborat aralashmasidan kuzgi bug'doy hosilidan bo'shagan maydonda noan'anaviy o'g'it tayyorlangan, tuproqning 0-30 sm haydalma qatlamini noan'anaviy o'g'itga boyitish agrotexnologiyasi yaratilgan. Yangi turdagi noan'anaviy o'g'it tayyorlashda agrokimyoviy, fizikaviy, jarayonlar ishtirok etib, bu jarayonda tuproq xossa-xususiyatlari, tuproq unumdorligi, uslubiyotlar asosida o'rganilgan va ilmiy tahlil qilingan.

1-jadval

Kuzgi bug'doyning "Vassa" navini oziqlantirish tizimini amalga oshirish agrotexnologiyasi

O'g'itlar ning yillik me'yor, kg/ga	Ekishdan oldin			Ekishdan keyin			Tuplanish davrida			Naychalash davrida			Boshqalash davrida				
	chiqindi va qoldiqlar, t/ga	mineral o'g'itlar, kg/ga		mineral o'g'itlar, kg/ga			chiqindi va qoldiqlar, t/ga	mineral o'g'itlar, kg/ga			chiqindi va qoldiqlar, t/ga	mineral o'g'itlar, kg/ga			mineral o'g'itlar, kg/ga		
		P	K	N	P	K		N	P	K		N	P	K	N	P	K
N ₀ P ₀ K ₀	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
2 t/ga go'nglar + N ₂₂₀ P ₁₆₀ K ₅₀ kg/ga	-	96	30	44	32	10	1 t/ga go'nglar	55	24	7	1 t/ga go'nglar	77	8	3	44	-	-
7 t/ga chiqindi va qoldiqlar + N ₁₅₄ P ₁₁₂ K ₃₅ kg/ga	7	67	21	31	22	7	-	38	17	5	-	54	6	2	31	-	-
10 t/ga chiqindi va qoldiqlar + N ₁₅₄ P ₁₁₂ K ₃₅ kg/ga	10	67	21	31	22	7	-	38	17	5	-	54	6	2	31	-	-
15 t/ga chiqindi va qoldiqlar	15	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Yillik oziqlan tirish miqdori, %	100	60	60	20	20	20	-	25	15	15	-	35	5	5	20	-	-

2.5-bo'limida «Haydalma qatlamda noan'anaviy o'g'it tayyorlash texnologiyasi» Tadqiqotlar o'tkazilgan Toshobod massivida, chiqindi, qoldiqlar (go'nglar, (cho'kindi loyqa) li va bug'doy qoldiqlari) tarkibi o'rganildi:

il (cho'kindi loyqa) tarkibida o'simliklar uchun zarur bo'lgan oziq elementlar mavjud. Go'ng, chuchuk suv loyqasi va o'simlik qoldiqlarini aralashtirib, o'g'it sifatida qo'llash yaxshi samara beradi.

Ariq, va kanallar tubida to'plangan loysimon qoldiq bo'lib, tarkibida 6-20 % chirindi, 2,0-5,0 % azot, 0,28-2,4 % fosfor va 0,8-1,6 % gacha kaliy mavjud.

Go'ng, il (cho'kindi loyqasi) va bug'doy qoldiqlaridan foydalanishdan avvalo mahsulotlar bug'doydan bo'shagan maydonda tayyorlash uchun ayniqsa, go'ng topib qo'yiladi.

Kuzgi bug'doydan bo'shagan ekin dalaning o'zida mavjud bug'doy qoldiqlari va mineral o'g'itning (Fermerning mineral o'g'it me'yorlari $N_{220}P_{160}K_{50}$, kg/ga nisbatan NPK ning 30 % i) iqtisod qilgan holda foydalanilib, uning ustiga loyqa va go'ng bir me'yorda tajriba o'tkaziladigan maydonga to'kib chiqildi, va magnum-L-100 traktorida 35-40 sm chuqurlikda haydab tuproq namligi hisobga olinadi, agar namlik 60 % dan kamayib ketadigan bo'lsa, nam suvi beriladi.

Dissertasiyaning «**Chiqindi, qoldiqlar va mineral o'g'itlarni kuzgi bug'doyning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi, don va non sifatiga ta'siri**» deb nomlangan uchinchi bobi 7 ta bo'limdan iborat bo'lib, kuzgi bug'doyning unib chiqishi, maysalashi, tuplanishi, naychalashi, boshqoq hosil qilishi, sut, mum, to'la pishishi, kuzgi bug'doylarda hosil belgilariga ta'siri, hosil shakllanishi, don va yopilgan non sifatiga oziqa elementlarni ta'siri o'rganilgan.

«O'g'itlarni kuzgi bug'doyning unib chiqishiga ta'siri» deb nomlangan 3.1-bo'limida, kuzgi bug'doyning "Vassa" navi urug'ining unib chiqishi haqida bo'lib, eng yaxshi unib chiqishi sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlarda va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarida ham chiqindi, qoldiqlar 10 t/ga va $N_{154}P_{112}K_{35}$ kg/ga o'g'it me'yorlarida aniqlangan. Unib chiqish muddatlari bo'yicha sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda 1-2 kunga ertaroq, unib chiqish miqdori ham 2-4 % ga ko'pligi aniqlandi.

«O'g'itlarni kuzgi bug'doyning tuplanishiga ta'siri» deb nomlangan 3.2-bo'limida, kuzgi bug'doyning tuplanish haqida so'z boradi. Bug'doy to'liq maysalab, kuzning oxirida poyalanishi (tuplanishi) ancha uzoq davom etadi, tuplar soni ko'payib borishi bilan izohlangan. Tuplar soni qancha ko'p bo'lsa, erta don hosilini ham mo'l bo'lishiga olib kelishi tajribalarda isbotlangan. Eng maqbul variantda, sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlarda bahorda o'simlik soni, 1 m² da 408,3 dona, poyalanish soni 1,4 dona, o'simlikning ustki qismi 16,8 sm bo'lgan bo'lsa, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda bahorda o'simlik soni, 1 m² da 412,3 (4,0) donaga, poyalanish soni 1,4 donaga, o'simlikning ustki qismi 17,3 (0,5) sm ga farq qilgan.

«O'g'itlarni kuzgi bug'doyning naychalanishiga ta'siri» deb nomlangan 3.3-bo'limida, kuzgi bug'doy naychalar hosil bo'lishi bilan izohlangan. Kuzgi bug'doy naychalanish davrida shiddat bilan o'sib, rivojlangan. Tadqiqotlarda o'rganilgan kuzgi bug'doy naychalanish davrida poya, bargi, naychalar soni, ildiz uzunligida farqi kuzatilgan. Chiqindi, qoldiqlar 10 t/ga va $N_{154}P_{112}K_{35}$ kg/ga fonida sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlarda ildiz uzunligi, 18,9 sm, barg uzunligi 17,1 sm, o'simlikning o'rtacha bo'yi 45,1 sm bo'lgan bo'lsa, sug'oriladigan o'tloqi tuproqda ildiz uzunligi, 19,6 (0,7 ga ko'p) sm, barg uzunligi 17,6 (0,5 ga ko'p) sm, o'simlikning o'rtacha bo'yi 47,6 (2,5 ga ko'p) sm farq qilgan.

«O'g'itlarni kuzgi bug'doyning boshqoqlashiga ta'siri» deb nomlangan 3.4-bo'limida, kuzgi bug'doyda boshqoq, boshqoqda don shakllanishi borasida so'z boragan. Kuzgi bug'doyning boshqoqlash fazasida, hosilning muhim belgilari shakllangan. Tadqiqotlarda, sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlarda ildiz uzunligi 19,9 sm, barg uzunligi 26,6 sm, boshqoq uzunligi 6,8 sm va poyalarning o'rtacha bo'yi 97,9 sm tashkil qilgan bo'lsa, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda ildiz uzunligi 21,6 (1,7 ga ko'p) sm, barg uzunligi 27,3 (0,7 ga ko'p) sm ni, boshqoq uzunligi 6,9 (0,1 ga ko'p) sm va poyalarning o'rtacha bo'yi 99,2 (1,3 ga ko'p) sm tashkil qilgan.


«O'g'itlarni kuzgi bug'doyning hosil belgilariga ta'siri» deb nomlangan 3.5-bo'limida, kuzgi bug'doyning o'sishi, rivojlanishi, qo'llanilgan chiqindi va qoldiqlar bilan birga o'g'it me'yorlari tuproq xossalarini o'zgarishiga ta'siri kuzatilgan. Vaholanki, oziqa unsurlarini harakatchan shakllarini o'zgarishiga ularning ta'siri bo'lganligi kuzatilgan. Tadqiqotlarda, sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlarda asosiy belgilar sifatida 1 m² da umumiy poyalar soni 571,6 dona m² da, mahsuldor poyalar soni 379,1 dona, poyalarning o'rtacha bo'yi, 103,8 sm bo'lgan bo'lsa, sug'oriladigan o'tloqi tuproqda 1 m² da umumiy poyalar soni 577,2 dona m² da, mahsuldor poyalar soni 380,2 dona, poyalarning o'rtacha bo'yi, 105,4 sm tashkil qilgan.

«O'g'itlarni kuzgi bug'doy don va somon hosildorligiga ta'siri» deb nomlangan 3.6-bo'limida, kuzgi bug'doyning don va somon hosildorligiga ta'siri o'rganilgan. Chiqindi, qoldiqlar 10 t/ga va N₁₅₄P₁₁₂K₃₅ kg/ga o'g'it me'yorlari qo'llanilgan sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlarda aniqlangan. Bunda bitta boshqda donlar soni 37,5, 1000 ta don vazni 45,5 bitta boshqdag qobiqning vazni 0,48 gr, don hosili 64,68 s/ga va somon hosili 80,86 s/ga. Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda bitta boshqda donlar soni 38,3, 1000 ta don vazni 46,2 bitta boshqdag qobiqning vazni 0,50 gr, don hosili 67,27 s/ga va somon hosili 81,44 s/ga ni tashkil qilgan.


«O'g'itlarni kuzgi bug'doyning don va non sifatiga ta'siri» deb nomlangan 3.7-bo'limida, donning sifati, don tarkibidagi oqsil miqdorlari bilan bog'liq, oqsil miqdori yuqori bo'lganda, kleykovinaning miqdori ham oshgan. Kleykovina miqdori, ko'proq azotli oziqa elementlarga bog'liq ekan. Oqsillar miqdorini ko'payishi, don sifatining oshishi, bug'doy unining fizik–kimyoviy ko'rsatkichlari yaxshilanishida, unidan tayyorlangan non mahsulotlarini yanada sifatli chiqishiga don tarkibidagi fosfor va kaliy oziqa elementlarining ahamiyati aniqlangan. Yuqoridagi maqbul o'g'it fonida, kuzgi bug'doyning “Vassa” navi donining sifat ko'rsatkichlari yaxshilangan, don tarkibidagi oqsil miqdori sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir o'tloqi tuproqlarda 1,05 % ga va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda 2,5 % ga oshganligi tahlillarda ma'lum bo'lgan. Eng muhimi tabiiy oziqa bilan oziqlanishiga sharoit yaratiladi. Laboratoriya tahlillari ko'rsatishicha, dondagi oqsil miqdoriga bog'liq holda kleykovina miqdori oziqa elementlarga bog'liq holda o'zgarishi aniqlangan.

